
UNDERSTANDING THE FOLK LORE

Rohila Mamatqulova Safarovna

The Republic of Uzbekistan,

Surkhandarya region

Jarkurgan district,

School №37

The supervisor of the Uzbek language and literature

E-mail: mamatqulovarohila118@gmail.com

Annotation: Through this article, the great discovery of Art — the human intellect — that the work of art is proportionate in form and content, is interpreted in fiction in terms of gender and genre.

Keywords: Theory, literature, folklore, creativity, epics, riddles, proverbs, methods of teaching folklore.

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali San'at-inson aql-u zakovatining buyuk kashfiyoti San'at asari shakl va mazmun jihatidan mutanosib bo'lishi, Badiiy adabiyotda jins va janr tushunchasida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Nazariya, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, ijodkorlik, dostonlar, topishmoq, maqol, xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi.

San'atni anglash insonda o'ziga xos mahorat talab etadi. Shuning uchun ustozlarimiz "San'at-inson aql-u zakovatining buyuk kashfiyoti" deb aytishgan. Ayni paytda "San'at mahoratning eng oliy darajasida vujudga keladi" degan purma'no so'zlarimiz ham xalqimizning buyuk hikmatlaridandir. Haqiqatan ham, san'atni tushunish san'atni yaratishdek murakkab ekanligini bilishimiz kerak. Odatda, maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan odamlar oddiy tasvirlarni san'at asari deb tushunadilar. Masalan, savdo rastalarining peshlavlariidagi reklama maqsadida namoyish qilinadigan turli xil rasmlar va xakozolarni bunga yorqin misol qila olamiz. Aslida, bularning birontasi san'at asari hisoblanmaydi. Chunki san'at asari san'atkor tomonidan mahorat bilan yaratilishi shart. Bizga ma'lumki, san'atning naqsh, musiqa, haykaltaroshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, raqs, badiiy adabiyot kabi o'ziga xos turlari borligini aytib o'tishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan san'at turlarining o'z sirlarini mujassam qilgan uslub va ko'rinishlari mavjud. Haqiqiy san'at asariga ofushta bo'lar ekanmiz ruhiyatimizda ajib bir hissiy o'zgarishni sezamiz.

San'at asarning ko'zga ko'rinmas xususiyati shundaki, uning qadri va qiymati hech qanday arifmetik asoslar bilan o'lchanmaydi. Ammo birgina san'at asarini yaratish va xalq xazinasida munosib o'rin egallashi, tarixda nomi qolishi uchun san'atkor o'z ijod mahsuliga qanchadan qancha vaqti hamda mahoratini sarflaydi. Biz yoshlar esa ana shunday qiyinchilikda yaratilgan badiiy asarlarni asrab-avaylash va uning qadri hamda mazmun- mohiyatiga to'laqonli yetmog'imiz darkor.

Har bir so'z san'ati namunasi, jumladan, xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo'lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida son-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanavermaydi. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko'p yangi fikrlarga duch kelamiz.

Agar siz ona yurtning kelajagini o'ylasang, uni birlashtirish, jipslashtirish haqida bosh qotir, degan haqiqat ilgari suriladi. Hakimbek Qalmoq yurtiga ko'chgan yurtdoshlarini Qo'ng'iro't-Boysunga qaytarib olib keladi. Shuningdek, inson qadrini asrash, ota-onalar hurmatini bajo keltirish, har bir farzandlikning Alpomishdek mard, jasur, so'ziga sodiq bo'lib, o'sishini ta'minlash kabi hayotiy muammolar dostonida o'z ifodasini topgan.

San'at asari shakl va mazmun jihatidan mutanosib bo'lishi kerak. Badiiy adabiyotda jins va janr tushunchasi bor. Janr deganda lirik,epik, drama tushuniladi. Lirikada his-tuyg'u, ichki kechinmalar:eposda voqea ifodasi, asar qahramonlarining taqdiri bayoni; dramada sahna sharoitida voqealarning rivoji,qahramonlar dialoglari vositasida hayotiy lavhalar tasviri tushuniladi.Janr esa jinsdan torroq ma'noni anglatadi.Har bir janrga mansub asarlarni shakl, mazmun,hajm va yaratilishi nazarda tutilgan maqsad birlashtirib turadi.Bir janrda yaratilgan asarlar muayyan shakl va mazmunga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu talab hamisha shaklning mazmunga mutanosib bo'lishini taqozo etadi. Odatda,shakl qanchalar ixcham mazmun qanchalar keng ko'lamga ega bo'lsa asar shunchalar qadrlidir.Xalqimiz og'zaki ijodida ko'pincha bundan fazilat maqollarda namoyon bo'ladi. Bir jumladan iborat maqolning mazmunini hayotiy dalil va misollar bilan soatlab tahlil qilish mumkin.Lekin hamma asarlarga ham bu o'lchov bilan yondashish mumkin emas. Ularning mazmuni millatimiz vakillarining hayotini tasvirovchi lavhalardan iborat.Xalq farzandlarning hayoti esa el yurt taqdiri asosida yoritiladi. Shunday qilib,topismoq, askiya,qo'shiq va boshqa janrdagi asarlar ham o'zida aks ettirayotgan mazmun bilan shaklan mutanosib bo'lishi zarur. Maqol va topishmoqlarning hajmi o'ta siqqligi, dostonlarda esa hajman kengligi bilan asrlar davomida xalq xizmatini bajarib kelgan.

Badiiy asar,xususan,xalq og'zaki ijodida umuminsoniy muammalar ifodalanadi. Albatta,har bir xalqning o'z milliy xususiyati, milliy tabiati,ya'ni mentaliteti mavjud.Ammo bu milliylik badiiy adabiyotda umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Har bir millatda Vatan,xalq,ota-ona,opa-singil,o'gay ota,o'gay opa, ustoz,shogird kabi tushunchalar bor. Odamlar o'rtasida munosabatlarning asosini adolat,andisha,haqiqat kabi tushunchalar belgilaydi. Shuning uchun o'zbek maqollari mazmunida dunyodagi juda ko'p millatlarda uchraydigan hikmatlar bor."Zumrat va qimmat" ertagidagi voqealar ko'p xalqlarda deyarli o'zgarishsiz takrorlanadi."Alpomish"dostonidagi mardlik, jasurlik,odamiylik,dunyo xalqlari eposi mavzulari va g'oyaviy yo'nalishi bilan uyg'un.Ertaklarning birida (o'zbeklarda) qo'y yoki echki,ikkinchilarda (xitoylarda) guruch,uchinchisida (guruzin) uzum yetakchi unsuri hisoblanadi.

O'zbek maqolida "Oyni etak bilan yopib bo'lmas"deyilsa, ruslarda "Shelo v meshke i utaish"("Begizni qopda yashira olmasan") maqoli mashhur. Har bir ikki maqolning mazmuni bir-biriga yaqin. Ma'lum bo'ladiki, og'zaki ijodda asarlarining bosh qahramoni, avvalo, inson hisoblanadi. Inson esa mashhur bir millat vakili bo'lishi kerak. Og'zaki ijoda asarlarini eshitganimizda, o'qiganimizda biz o'zimizning hayotimiz haqida mushohada yuritishga tasvirlanayotgan voqealarni mavjud maishiy muhit bilan qiyoslashga o'rganishimiz, har bir tanishuvdan foydali maslahat olishga intilishimiz mumkin.Ya'ni biror fikrni bildirishi uchun boshqacha bir yo'l tanlanadi.

Xalq og'zaki ijodining san'at sifatida ta'minlaydigan asosiy omil so'z ekanini tasdiqlaydi.Bu qurol-so'z hisoblanadi.

Fikrimizning qanchalar to'g'ri ekani xalqimiz ijodidagi askiya janri misolida to'liq isbotini topadi. Janrning asosini milliy tilimizdagi omonim so'zlarning nihoyatda ko'pligini tashkil etadi. Natijada so'z o'yini usuli bilan kulgu paydo bo'ladi va askiya vujudga keladi. O'zbek milliy tilining boy va rang-barang imkoniyatlarga ega ekanligi boshqa janrlarda ham namoyon bo'ladi. Doston,ertak, qo'shiq kabi turli janrlarga mansub asarlar so'zlarini boshqalari bilan almashtirish mumkin emas.Boshqa so'z qo'llanganda asarning mazmuniga va shakliga jozibasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatni og'zaki ijodimizdagi istalgan namunaning istalgan so'ziga nisbatan kuzatish mumkin. Masalan,ertaklar"Bir bor ekan, bir yo'q ekan"degan so'zlar bilab boshlanadi. Shu jumlaning o'zida hikoya qinilayotgan voqeaning hayotda ro'y berganiga shubha paydo bo'lishi tabiiydir.Ertak davomida esa birinchi jumladagi fikr rivojlanadi va tasdiqlanadi. Bu matndagi so'zlarni boshqalar bilan almashtirsak,misralarning fayzi, shukhi yo'qoladi.Xalqimiz yaratgan maqollarni tashkil etuvchi so'zlar esa umuman til lol qoladi.Mahmud Kashg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida 300ga yaqin maqol keltirilgan.Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. "Badiiy"so'zining go'zal, ajoyib ma'nolarga ega bo'lishi lug'atlarda qayd etilgan.Asar matnini go'zal qilib turadigan omil esa ko'pincha badiiy tasvir vositalariga bog'liq.Badiiy tasvir vositalarini mutaxassislar"badiiy san'atlar","tasvir vositalari", "She'r san'atlari"deb ham ataydilar.Ularning sifatlash, o'xshatish,mubolag'a kabi o'nlab turlari mavjud. Aslida

olganda, har bir badiiy san'at namunasi ham o'ziga xos kashfiyot hisoblanadi."Bozирg'on" dostonida Go'ro'g'li o'ttiz qo'yning terisidan bo'lgan po'stinni, o'n beshning qo'yning terisidan bo'lgan cho'g'irma (bosh kiyim)ni kiyib, daryo yoqalab ketaveradi. Bozирg'on bo'lsa bir oyog'ini daryoning o'ng, ikkinchi oyog'ini chap tomoniga qo'yib, tuyalarni o'tkazayotgan bo'ladi. Yuqorida qayd qilingan tasvir vositalari og'zaki ijod asarlariga o'ziga xos fayz bag'ishlaydi.

Albatta, badiiy adabiyotning, xususan, og'zaki ijodning so'z san'ati sifatidagi fazilatlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan belgilar bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, og'zaki asarlarda ham, yozma adabiyotda ham ijodkor majoziy fikr yuritishi mumkin. Ya'ni biror fikrni bildirish uchun boshqacha yo'l tanlanadi. "Xalq og'zaki ijodi san'at sifatida" deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, ijrochilarning bag'ishlayotgan ma'naviy lazzatini ham unutmaslik lozim. Xalq qo'shiqlarida aks etgan his-tuyg'u, ichki kechinmalar, ertaklarda g'aroyib voqealar, dostondagi go'zal tasvirlar, eng avvalo, zargarona tanlangan so'zlardan iboratligi, ularning mahorat bilan ijro qilinishi asarlar davomida xalqimizga zavq bag'ishlagan. Shuning uchun ham, mazkur asarlar o'zbek xalqi ma'naviy xazinasining bebaho qadriyatlari sifatida hamisha e'zozlangan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abdulaev X. Xalq dostonlari va ularning variantlari. Toshkent, 1984
2. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. Toshkent, 1968
3. Yoqubjon Isxoqovning "So'z san'ati so'zligi" (Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2014) kitobidan.
4. O'sha: Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, 1979.
5. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat Toshkent, 1969
6. Karimov «O'zbek adabiyoti tarixi», III kitob «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent, 1966, 282-bet